

**FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR**

**ZIYOVUDDIN TOSHOV**

**tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan**

**"HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA FONETIKA  
VA FONOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI"**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman**

**materiallari**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
NEMIS FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**FONETIKA VA FONOLOGIYA FANLARINING TARG’IBOTCHISI,  
FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR  
ZIYOVUDDIN TOSHOV  
tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan**

**“HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA  
FONETIKA VA FONOLOGIYANING  
DOLZARB MUAMMOLARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman**

**20-oktyabr 2023-yil**

**Buxoro – 2023**

chet tilidagi matn voqeligini idrok etib, uni ona tili vositalaridan foydalangan holda qayta yaratuvchi ikki tomonlama lingvistik shaxs sifatida ishlaydi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Валеева Н.Г. Ведение в переводоведение. – М.: Изд-во РУДН, 2006. – 167 с.
2. Жомин М.Н. Современные технологии перевода: от кустарного бизнеса к поточному производству // Сибирский филологический журнал. – 2012. – № 3. – С. 34 – 35.
3. Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. – М., 1988. – 256 с.

## **ERTAKLAR VA BADIY ASARLARNI TARJIMA QILISH MAHORATI**

**Babayev Maxmud Tashpulatovich**

**Buxoro davlat universiteti "Nemis filologiyasi" kafedrasи o'qituvchisi**

**Ashirova Rayhon Anvar qizi**

**Buxoro Davlat Unversteti Xorijiy tillar fakulteti 11-3TNA-21 guruh talabasi**

**Annotatsiya:** *Maqolada ertak janri, ertak janirida syujet, ertak va uning turlari, badiiy asarga ta'rif va tasnif, badiiy adabiyotga e'tibor, tarjimonlar yelkasiga ortilgan mas'uliyat yuki, badiiy asar va ertak tarjima qilish jarayoni va tarjimonlik faoliyati, badiiy asar va ertak tarjima qilgan insonlar fikrlari haqida so'z yuritilgan.*

**Abstract:** *In the article, the fairy tale genre, the plot of the fairy tale genre, the fairy tale and its types, definition and classification of the literary work, attention to fiction, the burden of responsibility placed on the shoulders of translators, the process of translating a literary work and a fairy tale, and the work of a translator, a literary work and the thoughts of the people who translated the fairy tale are discussed.*

**Аннотация:** В статье обсуждается жанр сказки, сюжет сказочного жанра, сказка и ее виды, определение и классификация литературного произведения, внимание к художественной литературе, груз ответственности, возлагаемый на плечи переводчиков, процесс перевода литературного произведения и сказки, а также работа переводчика, литературное произведение и мысли людей, переводивших сказку.

**Kalit so'zlar:** *Ertak, ertak syujeti, ertak turlari, badiiy tasvir, badiiy adabyot, badiiy asarni tarjima qilish, tarjimashunoslik, tarjimonlik faoliyati.*

**Key words:** *Fairy tale, fairy tale plot, types of fairy tales, artistic image, artistic literature, translation of artistic works, translation studies, translation activities.*

**Ключевые слова:** *Сказка, сказочный сюжет, виды сказки, художественный образ, художественная литература, перевод художественных произведений, переводоведение, переводческая деятельность.*

Ertak — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga assoslanishi, voqe va harakatlarning ajoyib-u g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiyy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo'lib, syujet voqealarining assosini tashkil etadi, syujet chizig'idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta'minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta'limiy estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o'ziga xos badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqe va hodisalarini hayotda bo'lishi mumkin bo'limgan yoki mavjud bo'lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi. Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroti, syujet chizig'ida tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra, ertakni 2 guruhga — xayoliy uydirmalar asos bo'lgan ertak, hayotiy uydirmalar asos bo'lgan ertaklarga bo'lish mumkin. Xayoliy uydirmalar asosidagi ertak syujeti mo'jizali, sehrli; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertakning syujeti esa hayotiy tarzda bo'lib, unda real voqe-hodisalar tasvirlanadi. Ertakda, asosan, uch maqsad hikoya qilinadi. Birinchisida ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinchisida, asosan, bosh qahramonning o'zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo'lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinchisida

esaadolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar bayon qilinadi. Birinchi maqsad pahlavonning faol harakati va g‘ayritabiiy kuch-qudrati bilan amalga oshsa, ikkinchi maqsad passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchi maqsad esa bosh qahramonning aql-idroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi. Ertak janri obrazlar talqini, g‘oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o‘rni va vazifasi, tili va uslubiga ko‘ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo‘linadi.[2.]

Badiiy asar — inson faoliyatining mahsuli. Inson faoliyati esa keng va serqirradir. Inson faoliyati bir-biriga bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan „mehnat faoliyati“, „ruhiy faoliyat“, „estetik faoliyat“ kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Boz ustiga, ruhiy faoliyatning o‘zi „aqliy“, „hissiy“, „ruhoniy“ faoliyat qirralarini namoyon etadi. Badiiy asar insonning go‘zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Shunday ekan, badiiy asarni ta’riflashda biryoqlamalikka yo‘l qo‘yish, uni faqat ijtimoiy ong yoxud faqat san’at hodisasi sifatida tushunish predmetning mohiyatini jo‘nlashtiradi, bizni uning tabiatini anglashdan uzoqlashtiradi. Agar biz diqqat bilan kuzatsak, insoniyat ongini tanigandan beri “Badiiy asar nima? yoki badiiy adabiyot nima?” degan savol u yoki bu tarzda muntazam qo‘yilib kelishiga guvoh bo‘lamiz. Qizig‘i shundaki, bu savolga har bir davr o‘zicha javob beradi, boz ustiga, bir davrda yashayotgan odamlarning javoblarida bir-biridan jiddiy farqlanadi. Tugal va uzil-kesil javob berilishi mumkin bo‘lmagan „badiiy adabiyot nima?“ savolining hozirgi kunda ham kun tartibida turgani tabiiy. Bugungi kunda mazkur savol tegrasidagi bahslar „adabiyot san’atmi yoki ong sohasimi“, „adabiyot ijtimoiy bo‘lishi kerakmi yoki yo‘qmi“, „adabiyot ommaviy bo‘lishi kerakmi yoki elitarmi“ kabi asosiy masalalarni o‘z ichiga oladi.[3.]

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida barcha tur va janrlar qatori badiiy tarjima amaliyotida ham o‘sish-o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Aynilsa, asliyat tilidan tarjima izga tushayotgani quvonarli hol. Bu borada yoshlarning o‘z iqtidorini sinovdan o‘tkazayotgani, Sharq va G‘arb xalqlari adabiyoti namunalarini bevosita ona tilimizga o‘girishga dadil kirishayotgani katta umid uyg‘otadi. Ayni paytda o‘zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish bobida ham yoshlar yaxshigina tashabbus ko‘rsatmoqda. Bu sohadagi ishlarning izchil tus olganini O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi “Badiiy tarjima va xalqaro aloqalar bo‘limi”ning respublikamizdagi yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida poytaxt va viloyatlardagi oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikda “Yosh tarjimonlar maktabi”ni tashkil etgani, yosh tarjimonlarning ilk tarjima asarlari “Adib” nashriyotida chop etilayotgani, “Jahon adabiyoti” jurnalining muntazam chiqib turgani va amalga oshirilgan boshqa ko‘plab tadbirlar misolida ko‘rish mumkin. Zero, o‘zbek adabiyoti namunalarini chet tillariga, jahon adabiyoti sara asarlarini ona tilimizga munosib tarzda tarjima qilib taqdim etishdek sharafli vazifa bugungi navqiron avlodning iqtidori, g‘ayrat-shijoatiga bog‘liqligi sir emas. Bugungi adabiy jarayonda badiiy tarjimaning o‘rni, tarjimashunoslik, tarjima tanqidi sohalaridagi yutuq va kamchiliklarni tahlil, talqin etish, muayyan xulosalar chiqarib olish kun tartibidagi muhim vazifalar sirasidan ekaniga iqror bo‘lamiz.

“XX asrga qadar “tarjima” so‘zi faqat tarixiy, falsafiy, adabiy va badiiy asarlar o‘girmasiga nisbatan qo‘llanib kelingan. Og‘zaki tarjimonga nisbatan esa turkiy xalqlarda “tilmoch”, nemis tilida “Dolmetscher”, ingliz va frantsuz tillarida “interpret” atamalari qo‘llanilgan. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo‘sinda umumiy ma‘no kasb etgan”-deb ta’kidlaydi Muhammadjon Xolbekov.[4.]

Ibrohim G‘afurov—“ Hozirgi zamonda tarjima amaliyoti (tarjima turidan qat’iy nazar) ilmga asoslanadi. Albatta, ijod jarayonida intuitsiyaning o‘z o‘rni hamda salmog‘i yo‘q emas. Ilm tarjimaning to‘laqonli va ishonzhli chiqishiga yo‘l ochadi. Tarjimashunoslik va uning tarkibiy qismiga aylanib borayotgan, ammo hali o‘zini to‘la namoyon qilib ulgurmagan tarjima tanqidi ilm turidir. Bu ilm tilshunoslik, grammatika, stilistika, semantika, belgishunoslik (semiotika) kabilar bilan yaqin aloqa bog‘lab, mustahkam hamkorlik qiladi”- deb aytib o’tgan ekan bir davra suhbatida. [5.]

Albatta, har qanday tarjima ham tinimsiz izlanishlar, mehnat va yana mehnat mevalari bo‘lib, bu tarjimondan o‘ta fidoyilikni talab qiladi. Badiiy tarjima – murakkab hodisa. Murakkabligi avvalo shundaki, tarjimon asar muallifining mushohadalarini, uni qiynagan hasratlar

yoki aksincha quvontirgan shodliklarni asarning yangi o‘quvchilariga tushuntirib berishi zarur. Menimcha, bu jarayonda til bilishning o‘zi kamlik qiladi. Tarjimon faqat tilni emas balki tarjima qilayotgan asar yozilgan davrni, asar yozgan mualif madanyatini, urf- odatini chuqur o‘rganib undan so‘ng asar tarjimasiga qo‘l cho‘zmog’i lozim.

Ertak va badiiy asarlarni nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda o‘z jonkuyarligi bilan ajralib turadigan bir nechta tarjimonlarni tanishtirib o‘tsam.

1.Xurram Rahimovni ertaklar olami o‘ziga tortdi. U nemis xalq ertaklarini o‘zbek tiliga, o‘zbek xalq ertaklarini nemis tiliga tarjima qilib O‘zbekistonda va Germaniyada chop ettirdi.

2.Shuhratxon Imyaminova asosan hajviyalar, kichik hajmdagi hikoyalar tarjimasi bilan shug‘ullandi.

3. Hafiza Qo‘chqorova zamonaviy nemis adabiyoti namunalarini tarjima qiladi.

4.Samarqanddagi yosh tarjimonlar seminarida Posho Ali o‘z tajribalari haqida shunday so‘zlarni aytgan edi: “Men “Faust”ni tarjima qilishdan oldin uni chuqur o‘qib-o‘rgandim. Keyin barcha rus va boshqa tillardagi tarjimalarni yig‘ishtirib bekitib qo‘ydim-da, bиргина asl nusxdan foydalanib, Gyote bilan faqat nemis tilida muloqot qilgan holda tarjimani boshladim.”[1.]

Yuqorida aytib o‘tganimizdek badiiy asar tarjimasi bilan ertakni tarjima qilishda biroz farqi bor, aytaylik hikoya tarjimasida bir voqeа yoritilsa ertakda biroz ko‘proq sodda hikoyalar, sehrli vositalar ishtirok etadi. Ertak qiziqarli, sodda, bola tushunadigan tilda bo‘lishi, matni hikoyanikidan qisqa va lo‘nda bo‘lishi shart, bu albatta tarjimonga qiyinchilik tug’diradi. Bir qarashda ertakni tarjima qilish eng oson tarjima qilish mumkin bo‘lgan badiiy asar bo‘lib ko‘rinsada, juda murakkab jarayon, chunki ertakda makon va zamon tez-tez almashadi. Tarjimon chet el adibini asariga o‘z tilida jon baxsh eta olishi va uni o‘quvchilarga yetkazib berishda ko‘prik vazifasini o‘tay olishi lozim. Bu tarjimondan asar mazmunini kitobxonlarga yetkazib berish mahoratini ham talab qiladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. ”Yoshlik” jurnali 2013-yil 12-soni
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
3. Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish”.
4. [http://ziyo.uz/images/01\\_m.xolbekov.jpg](http://ziyo.uz/images/01_m.xolbekov.jpg)
5. [http://ziyo.uz/images/02\\_i.gofurov.jpg](http://ziyo.uz/images/02_i.gofurov.jpg)

### **FANTAZIYA JANRIDAGI ASARLARINING ILMIY VA NAZARIY QIRRALARI**

**Xurshida Hasanova**

**Navoi Davlat Pedagogika Instituti tadqiqotchisi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fentezi janriga ta‘rif berilib, ushbu janrning turlari hamda eng mashhur fantaziya asarlaridan na‘munalar qayd etilgan va butun dunyo yozuvchilarining fantaziya janri haqida bildirgan fikrlari aks ettirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** fentezi, komik, fantaziya, nazariy qirra, ilmiy qirra, madaniyat, adabiyot, asar

**Аннотация:** В данной статье определен жанр фэнтези, перечислены виды этого жанра и примеры наиболее известных фэнтезийных произведений, а также отражены мнения, высказанные писателями всего мира о жанре фэнтези.

**Ключевые слова:** фэнтези, комикс, фантастика, теоретическая грань, научная грань, культура, литература, творчество

**Abstract:** This article defines the genre of fantasy, lists the types of this genre and examples of the most famous fantasy works, and reflects the opinions expressed by writers from around the world about the genre of fantasy.

**Key words:** fantasy, comic, fantasy, theoretical edge, scientific edge, culture, literature, work

Fentezi - bu xayoliy sodir bo‘ladigan voqealar aks etgan janr bo‘lib, ko‘pincha haqiqiy dunyo va milliy afsona va folkloridan ilhomlanadi. Uning ildizi og‘zaki an'anaviy dostonlarga borib taqalib, keyinchalik fantastik adabiyot, ilmiy fantastika hamda drama kabi alohida sabjanrlar kelib chiqqan.

N.M. Nazarova. "KONSEPT" TUSHUNCHASIDA LINGVISTIK MA'LUMOTLAR.....	157
F. S. Nasimova. TERMIN VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	159
K.H. Saitova. THE ROLE OF TRANSLATION MISTAKE IN TEACHING INTERPRETATION .....	161
М.С. Мирханова. АНГЛИЙСКИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ..	163
E.B. Jumayev, G.X. Nurullayeva. NEMIS TILIDA SHAXS IFODASI.....	164
N.T. Tabisxanov. Die Adjektive im Werk „Kabale und Liebe“ von F.Schiller .....	166
Xaitova Gulshan Baxadirovna, Kamolova Sitora. O'ZLASHTIRMA GAP VA UNING O'ZGA GAP DOIRASIDA TUTGAN O'RNI.....	168
Г.К. Хожаметова. Построение предложения в английском языке.....	171
Г.К. Хожаметова. Методико-лингвистические принципы анализа фразеологической деривации в английском языке .....	173
М.А.Кучиев. ИЛОВАЛИ ЭЛЕМЕНТЛАР СИФАТИДА ҚЎЛЛАНГАН ФРАЗЕОЛОГИЗМ ВА БАДИЙ ТАСВИР ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС СТИЛИСТИК ВАЗИФАЛАРИ .....	175
Badalov Feruz Nuriddinovich. NEMIS TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ONLAYN AXBOROT NASHRLARIDAGI TUTGAN O'RNI.....	176
Xolova Shahnoza Davronovna. FRAZEMA VA UNING TADQIQ ETILISH TARIXI.....	178
Abdrimova D., Ismailov Yu.N. Stilistik figuralar matnning tarkibiy qismi sifatida .....	179
 <b>3-sho'ba. Zamonaviy tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik: an'ana va innovatsiyalar.....</b>	<b>182</b>
Зоҳиджон Садиков. АЛИШЕР НАВОЙЙ ИЖОДИ ОЛМОН ТИЛИДА .....	182
Д.З.Ражабов. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА ПОЭТИК НУТҚ ИФОДАСИ .....	185
Adizova Obodon Istamovna. FOLKLORSHUNOSLIKNING JANRIY TARKIBI VA TIZIMI XUSUSIDA .....	188
Adizova Obodon Istamovna. L'ÉTUDE SYSTÉMATIQUE DES MOEURS ET DES COUTUMES ... 190	
Karimova Dilafro'z Halimovna, Axmadova Xusnora Narzillo qizi. AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEKCHA TARJIMALARI XUSUSIDA.....	194
Maxmudova Muattar Maxsatilloevna, Xayitova Mavjudा. Y.V.GYOTE "G'ARBU SHARQ" DEVONINING MAQSUD SHAYXXZODA VA S.S.BUXORIY TARJIMALARIDAGI FARQLAR VA MUSHTARAKLIKLAR .....	196
Hayitova Mavjudा. S.S.BUXORIY IJODIDA SHARQU G'ARB MAVZUSI VA "MAG'RIBU MASHRIQ" DEVONI TARJIMASI HAQIDA .....	199
Babayev Otobek. ÜBERSETZUNGEN UND AUSGABEN VON JALOLIDDIN RUMIS WERKEN . 202	
Babayev Otobek Abdikarimovich, Zokirov Jamshid Kholmat Ugli. The history of interpreting .....	204
Jumayev Akmal Axmatovich. QALDIRG'OCH OBRAZI O'ZBEK VA NEMIS XALQ ERTAK VA AFSONALARIDA .....	207
Jabbarova Maloxat Xamdamovna. ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ПИСАТЕЛЯ НА ИЗОБРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА .....	209
Babayev Otobek, Anna Angelika Janning, Anne Charlotte Blasel. FUNKTIONEN UND ROLLE DER LITERARISCHEN ÜBERSETZUNG IM 21. JAHRHUNDERT .....	212
Xudoyev Samandar Samatovich. O'ZBEK LATIFALARINING TARJIMA EVOLYUTSIYASI.....	218
Bozorova Muxabbat Abduraxmonovna. HAYNRIX HAYNE SHE'RLARI O'ZBEKCHA TARJIMASIDA SHARQONA OBRAZ VA MOTIVLAR IFODASI .....	220
Бозорова Мухаббат Абдурахмановна. ВЫРАЖЕНИЕ ВОСТОЧНЫХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ СТИХОТВОРЕНЬЙ ГЕНРИХА ХЕЙНА .....	222
Tolibjanov Baxromjon Maxmudxonovich. MARK TVEN YUMORISTIK ASARLARI TARJIMASIDA MUROJAAT SHAKLLARINING BERILISHI .....	224
Jumayeva Shahlo Shokirovna. MILLIY KOLORIT TERMINI, UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA UNING QAMROV DOIRASI.....	225
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Bafoyev Mirfayz Baxshilloyevich. MADANIYATLARARO MULOQOTDA TARJIMANING O'RNI .....	227
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Ashirova Rayhon Anvar qizi. ERTAKLAR VA BADIY ASARLARNI TARJIMA QILISH MAHORATI .....	229
Xurshida Hasanova. FANTAZIYA JANRIDAGI ASARLARINING ILMIY VA NAZARIY QIRRALARI .....	231
Xamdamov Oybek Abdulxayevich. "O'TKAN KUNLAR" ROMANI TARJIMALARI TADQIQI.....	233